“O‘zkimyosanoat” AJ Termizdagi hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etmoqda

// 23 October 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-termizdagi-hududiy-tarmoqlararo-sanoat-yar



Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida, O‘zbekiston va Afg‘oniston chegarasida joylashgan “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o‘z faoliyatini boshladi. Tadbirning asosiy maqsadi — zamonaviy, raqobatbardosh, eksportbop hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlarini kengaytirish va sanoat sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.



Yarmarkada “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar faol ishtirok etmoqda. Tashkilot stendlarida kimyo sanoatida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy mahsulotlar, innovatsion ishlanmalar va istiqbolli investitsiya loyihalari taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, jamiyat hududiy tarmoqlararo hamkorlikni kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mahalliylashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha amaliy tashabbuslarni ilgari surmoqda.



Ikki kun davom etadigan ushbu yarmarkada mamlakatimizdagi salohiyatli sanoat korxonalari va mahalliy tadbirkorlar qishloq xo‘jaligi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, kimyo sanoati, charm-poyabzal va to‘qimachilik, qurilish materiallari hamda oziq-ovqat sanoati yo‘nalishlarida ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini namoyish etmoqda.


MAHSULOT
КАТАЛОГ
PRODUCT
CATALOGUE
sulfat



Umuman olganda, hududlararo sanoat yarmarkasi doirasida o‘zaro manfaatli hamkorlik bitimlari va shartnomalar imzolanishi, shuningdek, yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishilishi kutilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati